

BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

Egamova Barchinoy
Qo‘qon universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning boshlang‘ich maktabda rivojlanishi uchun zaruriy holat ekanligi ifoda etiladi. Bu o‘quvchilarni ma‘lumotni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va ilmiy va shaxsiy hayotida asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur vosita ekanligi izohlab o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich ta‘lim, o‘rganish, rivojlanish, konikmalar, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish, ijodkorlik, mustaqillik, ishonch.

АННОТАЦИЯ

В статье утверждается, что критическое мышление является необходимым условием развития учащихся начальной школы. Объясняется, что это необходимый инструмент студентам для анализа информации, решения проблем и принятия обоснованных решений в учебе и личной жизни.

Ключевые слова: Критическое мышление, раннее обучение, обучение, развитие, навыки, решение проблем, принятие решений, креативность, независимость, уверенность.

ABSTRACT

The article states that critical thinking is a necessary condition for the development of students in primary school. It is explained that it is a necessary tool for students to analyze information, solve problems and make informed decisions in their academic and personal life.

Keywords: Critical thinking, early learning, learning, development, skills, problem solving, decision making, creativity, independence, confidence.

“2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash tog‘risida”gi 187-son qarorida davlat yoshlar siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni tabiyalash, oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifati va uni baholashning xalqaro standartlarini joriy etish orqali

tubdan yaxshilash, yoshlarda mustaqil va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Teran fikrlaydigan, intellektual salohiyatga ega, har tomondan mukammal shaxsni voyaga yetishtirmoq, mahalla, oila, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim va oliy ta'lim muassasalari oldida turgan maqsadlaridan biridir. Yurtboshimizning, "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi" Mantiqiy va teran fikrlash inson miyasining o'ng va chap yarimsharini birday ishlashiga yordam beradi. Prezidentimiz juda o'rinli ta'kidlab o'tganlaridek, "chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga tog'ri yo'l ko'rsatish mumkin" O'yin faoliyati bolalarning jismoniy va psixik jihatdan har tomonlama rivjolanishi uchun birdan-bir vositadir. o'quvchining tabiatiga mos tushuvchi o'yinlar o'quv-tarbiyaviy jarayonni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi mumkin. O'yin bolani mashg'ulotda yuqori bosqichga erishishga bo'lgan qiziqishini orttiradi va unda kuchli motivatsiya hosil qilish imkoniyatini beradi. O'quvchini tezkorlikda harakat qilishga, chaqqonlik, topqirlikka, topshiriqlami aniq, tez, vaqtida bajarishga o'rganadi, ularda qonun-qoidalarga rioya qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bolaning faolligi rivojlantirilib, bilimga bo'lgan ishtiyoqi oshadi. Shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga yordam beradi. O'quvchilarda o'zaro hamkorlik, ijodkorlik, bir-biriga qayg'urish va o'zaro hurmat qilish kabi odatlar rivojlantiriladi. Ayniqsa, ularda tashqi dunyoni tasavvur etish, erkin fikr yuritish, emotsional faollik va o'zaro muloqotga kirishuvchanlik vujudga keladi. O'yinlar turli xil bo'ladi, masalan, didaktik, ta'limiy, milliy, harakatli, so'z o'yinlari, voqeaband, syujetli-rolli o'yinlar va hokazolar. Shulardan biri didaktik o'yinlardir-ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilarning bilimni mustahkamlashga va kengayishiga, umumlashtirishga, tizimga solishga yordam beradi.

O'yin ta'lim jarayonini tashkil etish hamda olib borishda pedagogik vositadir. O'yin biror narsani bilib oluvchi vositadir. Ta'lim mazmunini o'quvchilarga o'yin orqali tushuntirish bu eng qulay tushunishdir. Pedagoglarimiz orasida shunday gap yuradi. Eshitgan esdan chiqishi mumkin. Ko'rgan narsa esga tushishi mumkin. Ammo jarayonda shaxsan o'zim ishtirok etsam umr bo'yi esimda qoladi. O'quvchilar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi tog'risidagi umumiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq tizimli tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

- o'yin o'quvchilarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

- o'yin o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin o'quvchilarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir. Shu sababli o'yin

vositada ta'lim jarayonini tashkil etish voqea-hodisa mazmunni tushunish, o'rganish, o'zlashtirishni kafolatlaydi. O'yin o'quvchini o'ylashga, topqirlikka, ziyraklikka, mantiqiy fikr yuritishga o'rgatadi. Shu asosda o'z menini shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek bilishga o'rganish ehtiyojini tug'dirib, yangi o'zgarishlarga boshlaydi. Katta ensiklopedik lug'atda o'yin mahsuliy faoliyat bo'lib. lining motivi natijalarida emas, aksincha, jarayonning o'zida. namoyon bo'ladi. Bu jarayon o'ynovchilarga rohat bag'ishlaydi, undan tomoshabin zavq-shavq oladi. Shu sababli hani ta'limiy jarayonni samarali kechishida muhim rol o'ynaydi. Aksariyat pedagoglar o'yinni bilish qobiliyatlarini faollashtiruvchi vosita deb qaraydilar. U mahsulot emas, xizmat turi ham emas, lekin insonlar o'z umrini o'yin bilan bog'laydilar. Nima uchun? O'yin organizmda ortiqcha energiyadan xalos bo'lish, charchash va vaqtida kuchni foydali holda ishlatish, ayrim holda uni tiklashga ham yordam beradi. Insonni hayotiy muvozanatini saqlashda uning faolligini oshirish orqali organizmda ishlamay turgan organlarini ishga, harakatga keltirib yuboradi. Shu sababli ham o'yin organizmdagi yaxshi energiyalarni hosil qiladi va tiklaydi, ta'minlaydi. Ya'ni o'yin doimiy o'zlikni saqlab turuvchi ta'limiy jarayondir. Demak. o'quvchini o'yindan niahmrn etish unga og'ir jazo sifatida salbiy ta'sir etib yomon oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda kichik maktab yoshidagi bolalarga turli o'yinlar, o'yinchoqlar orqali ta'lim-tarbiya berib ularni maktabda ta'lim olishga tayyorlab borilmoqda. Tabiat qo'ynida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar bolalarning tevarak-atrof hamda o'simliklar nomlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarga qiziqtirishda, darslarni o'zlashtirishda yangidan-yangi didaktik o'yinlardan foydalanilmoqda. "Kimsasiz orol", "Stakan", "Yetti qadam", "So'zdan gapgacha, gapdan so'roqqacha", "Atamalar yomg'iri", "Alifboni bilasizmi?", "Bosh harflardan boshlaymiz" kabilar ta'lim tizimini yaxshilashga, darslarni qiziqarli tarzda tashkillashga yaqindan yordam berib kelmoqda. Quyida biz shu kabi metodikalar bilan tanishamiz.

"O'zim tekshiraman"

Bunday o'yinlarni o'tkazishda kichik hajmdagi diktant matni tanlanadi va udarsning kirish qismida 6 uyushtiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o'quvchilar yozib bo'lishgach, o'qituvchi xattaxtaga diktantni yozib ko'rsatadi. Mabodo diktant oldin xattaxtaga yozilib, usti yopib qo'yilgan bo'lsa, o'qituvchi pardani ochadi. O'quvchilar esa unga qarab o'zlari yozgan diktantni tekshiradilar. Bunday diktantlarni alifbe davrida ham qo'llash mumkin bo'lib, o'qituvchi avvaliga faqat harflardan, so'ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach)

bo'g'inlardan iborat quyidagicha turli variantlarda diktant yozdirsa, o'quvchilarning o'quv-biluv malakalari shakllana boradi.

1-variant: O,o, I,i, U,u, A,a.

2-variant: -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in.

3-variant: Bola, lola, ona, zar, par.

4-variant: Bugun havo issiq. **“Topag'on”**.

O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O'quvchilar shu belgini o'zida aks ettirgan predmetlar nomlarini aytadilar. Eng ko'p to'g'ri javob topgan o'quvchilar g'olib sanaladi. Bu o'yinni o'tkazish o'quvchilarga so'z turkumlari haqidagi dastlabki malumotlar berish jarayonini engillashtiradi. Bundan tashqari, hozirjavoblik, mustaqillik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

Savol: Nima oq rangda?

Javob: qog'oz, daftar, bulut, parda, qor, buvimning sochlari,..

“Noto'g'ri jumla”. Bu o'yin suratlar asosida o'tkaziladi. O'qituvchi suratni tasvirlab berish davomida suratga tegishli bo'lmagan jummalarni ham ishlatadi. O'quvchilar ziyraklik bilan shu jumalani topishlari lozim. O'quvchilardan bu o'yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatish bilan bir qatorda o'qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto'g'ri jumalani topish ularning o'ziga bo'lgan ishonchi va darsga qiziqishini orttiradi.

Bu o'yindan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham foydalanish mumkin. **“Jim” o'yini**.

O'yinning maqsadi: O'quvchilarning o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va malakalarini oshirish, sinash. O'yin guruhlarda o'ynaladi. O'yin jihozi: Raqamli yozilgan tarqatmalar, misollar, jadval. O'yinning borishi: Jadvallar doskaga osib qo'yiladi, doskaga bor bilan yoziladi. O'yin ovoz chigarmagan holda o'tkaziladi. O'qituvchi ko'rsatkich bilan 7 va 5 ni ko'rsatadi. O'quvchilar o'ylab 2 yozilgan tarqatmani ko'rsatadilar. **“Kim epchil” o'yini**.

O'yin maqsadi: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish. O'yin jihozi: 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar 12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10- 3 va hakozi.rqatmani ko'rsatadilar. **“Zanjir”**.

O'qituvchi o'yinni boshlab o'quvchilarga bitta so'z aytadi. O'quvchilar bu so'z qaysi harf bilan tugagan bo'lsa, shu harf bilan boshlanuvchi so'zni topib aytadilar. So'z o'yini shu tarzda davom etadi. Bu o'yin 1-sinflarda so'zlar, yuqori sinflarda esa maqollar, tez aytishlar, hikmatli so'zlar yoki sheriylar vositasida o'tkazilishi mumkin. Bunday o'yinlarning o'tkazilishi o'quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu o'yindan ona tili va o'qish darslarida dam olish daqiqalarida yoki darsni boshlashdan avval o'quvchilar diqqatini to'plab

olish maqsadida foydalanish mumkin. Masalan: Tabiat, taom, maymun, nok, kitob, botir, rayhon, ...

“Bu qaysi shakl?” o‘yini.

O‘yinning maqsadi: Geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga tarif berish malakasini oshirish. Og‘zaki nutqini rivojlantirish. O‘yin jihozi: Konvertlarga solingan geometrik shakllar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bola havotida o‘yinlar uni shaxs sifatida tarbiya topishiga katta imkon yaratadi. O‘yin orqali o‘z "Men"ini tanishi, o‘z haququqlarini bilishi, balki kerak bo‘lsa, jarnoa ichida o‘zini tuta bilish ko‘nikma va malakasi rivojlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN MATEMATIKADAN DIDAKTIK MATERIALLAR (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma) M.E.Jumayev, N.T.Axmedova, B.S.Abdullayeva, IN.II.Asjonova.Toshkent- 2016
- 2.BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASI. M.JUMAYEV.TOSHKENT-2022
3. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o‘rni. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
4. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 661-663..
5. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA‘LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
- 6.Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
7. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
8. SI Jumanova, G Mullaboyeva. BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASHDA SHARQ VA G‘ARB ALLOMALARINING QARASHLARIDAN FOYDALANISH Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 445-451
9. Soliyev Ilhomjon Sobirovich, Xoshimova Xulkaroy Xoshimjon qizi. Aqliy rivojlanishning mantiqiy masalalar yechishdagi ahamiyati. Yangi o‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi 1-jild, 5-son